



UDK:39:37.034:821.512.133(092)

Bobur NE'MATULLAYEV,

Talaba, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: nematullayevbobur90@gmail.com

Ravshan ABDUZOHIROV,

O'qituvchi, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: ravshan.abduzohirov@gmail.com, <https://ORCID.org/0009-0002-7019-9302>

Professor, t.f.d A.Ashirov taqrizi asosida

ALISHER NAVOIY ILMIIY-ADABIY MEROSIDA AXLOQIY TARBIYA VA KOMIL INSON G'OYASI: ETNOLOGIK TAHLIL

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiy ilmiy-adabiy merosidagi axloqiy tarbiya tizimi va komil inson g'oyasi etnologik yondashuv asosida keng ko'lamda tahlil etiladi. Maqola muallifi Navoiy asarlarini yaxlit etnologik-pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqadi va ushbu tizimning o'zbek xalqi etnik mentaliteti, milliy qadriyatlarini hamda an'anaviy tarbiya amaliyoti bilan aloqadorligini ochib beradi. Tadqiqot davomida Navoiyning «Mahbub ul-qulub», «Xamsa», «Hayrat ul-abror», «Muhokamat ul-lug'atayn» kabi asarlarida mujassamlashgan tarbiyaviy g'oyalar etnologiya va xalq pedagogikasi tamoyillari nuqtai nazaridan yangicha talqin etiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, Navoiy merosi birinchi marta yaxlit etnologik dastur sifatida taqdim etilmoqda va uning har bir komponenti zamonaviy etnologik nazariyalar bilan qiyosiy tahlil qilinmoqda.

Kalit so'zlar: etnologiya, komil inson, axloqiy tarbiya, etnopedagogika, xalq pedagogikasi, milliy mentalitet, Navoiy merosi, ustoz-shogird an'anasi, etnik qadriyatlar.

ПРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ И ИДЕЯ СОВЕРШЕННОЙ ЛИЧНОСТИ В НАУЧНО-ЛИТЕРАТУРНОМ НАСЛЕДИИ АЛИШЕРА НАВОИ: ЭТНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В данной статье представлен всесторонний анализ системы нравственного воспитания и идеи совершенной личности в научно-литературном наследии Алишера Навои на основе этнологического подхода. Автор статьи рассматривает произведения Навои как целостную этнологическую и педагогическую систему и раскрывает связь этой системы с этническим менталитетом узбекского народа, национальными ценностями и традиционными образовательными практиками. В ходе исследования образовательные идеи, воплощенные в произведениях Навои, таких как «Махбуб уль-кулуб», «Хамса», «Хайрат уль-аброр», «Мухокамат уль-лугатайн», интерпретируются по-новому с точки зрения принципов этнологии и народной педагогики. Научная новизна исследования заключается в том, что наследие Навои впервые представлено как целостная этнологическая программа, а каждый из её компонентов проанализирован в сравнительном контексте с современными этнологическими теориями.

Ключевые слова: этнология, совершенная личность, нравственное воспитание, этнopedagogika, народная педагогика, национальное мировоззрение, наследие Навои, традиция учитель-ученик, этнические ценности.

MORAL EDUCATION AND THE IDEA OF A PERFECT PERSON IN THE SCIENTIFIC AND LITERARY HERITAGE OF ALISHER NAVOI: AN ETHNOLOGICAL ANALYSIS

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of the system of moral education and the idea of a perfect person in the scientific and literary heritage of Alisher Navoi based on an ethnological approach. The author of the article considers Navoi's works as a holistic ethnological and pedagogical system and reveals the connection of this system with the ethnic mentality of the Uzbek people, national values, and traditional educational practices. During the study, the educational ideas embodied in Navoi's works such as «Mahbub ul-qulub», «Khamasa», «Hayrat ul-abror», «Muhokamat ul-lug'atayn» are interpreted in a new way from the point of view of the principles of ethnology and folk pedagogy. The scientific novelty of the study is that Navoi's heritage is presented for the first time as a holistic ethnological program, and each of its components is analyzed comparatively with modern ethnological theories.

Keywords: ethnology, perfect person, moral education, ethnopedagogy, folk pedagogy, national mentality, Navoi's heritage, teacher-student tradition, ethnic values.

Kirish. Etnologiya fanining asosiy vazifalaridan biri – muayyan xalqning madaniyati, mentaliteti va ijtimoiy tuzumini uning tarixi va ma'naviy merosi orqali o'rganishdir[7]. O'zbek xalqining ma'naviy-madaniy tarixiga nazar tashlaganda, XV asrda yashab ijod etgan ulug' mutafakkir va shoir Alisher Navoiyning o'rni beqiyos ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Navoiy nafaqat o'z davrining eng yirik adabiy namoyandasi, balki chuqur ijtimoiy-etnologik tafakkur sohibi hamdir.

Bugungi kunda globalashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bir sharoitda milliy pedagogik merosni o'rganish, uning zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimiga tatbiqini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan shu nuqtai nazardan Navoiy merosini etnologik kontekstda tahlil etish nafaqat ilmiy,

balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Zero, xalq pedagogikasi – bu avloddan avlodga o'tadigan muqaddas meros bo'lib, uning ildizlari xalqning ruhiyati, mentaliteti va hayot falsafasida chuqur joylashgan.

O'zbek xalqi mentaliteti uchun xos bo'lgan bir qancha xususiyatlar – kattalarni hurmat qilish, ilmga intilish, mehnatsevarlik, sabr-qanoat, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish – bularning barchasi Navoiy asarlarida o'z aksini topgan. Maqola ana shu xususiyatlarni etnologik-pedagogik nuqtai nazardan tahlil etishga qaratilgan.

Tadqiqot vazifalari. Navoiy asarlarida aks etgan komil inson konsepsiyasini etnologik nuqtai nazardan tahlil qilish va uni o'zbek xalqi etnik mentaliteti bilan bog'lash.

Axloqiy tarbiya tizimining (hilm, odob, ilm, sabr) xalq pedagogikasidagi o'rnini va uning kundalik hayotdagi amaliy jihatlarini ochib berish.

Ustoz-shogird munosabatlarning etnomadaniy mohiyatini aniqlash va bu an'ananing o'zbek jamiyatidagi noyob xususiyatlarini ko'rsatish.

Navoiy merosidagi pedagogik g'oyalarni zamonaviy etnologik nazariyalari (Volkov, Smith, Geertz, Anderson) bilan qiyosiy tahlil qilish.

Navoiy etnologik merosini zamonaviy ta'lim amaliyotiga tatbiq etish yo'llarini aniqlash va uning dolzarb jihatlarini asoslash.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. G. N. Volkovning «Etnopedagogika» asari ushbu tadqiqot uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Volkov xalq pedagogikasini bir xalqning avloddan-avlodga uzatadigan tarbiyaviy tajribasi sifatida ta'riflaydi[12]. Navoiy merosida aynan shu komponentlarning barchasi – og'zaki ijod, an'analar, marosimlar, mehnat tarbiyasi – o'z aksini topgan.

Britaniyalik etnolog Anthony D. Smithning «Millatlarning etnik kelib chiqishi» asarida etnik identitetni shakllantiruvchi omillar – umumiy til, tarix, madaniyat va qadriyatlar tizimi – batafsil tahlil etilgan[10]. Smith nazariyasi bo'yicha, etnik guruh o'z a'zolari uchun umumiy «axloqiy kodeks» shakllantiradi, ushbu kodeks esa avlodlar davomida ta'lim va tarbiya orqali uzatiladi.

Amerikalik antropolog Clifford Geertzning «Madaniyatlarning talqini» asarida madaniyat "ma'nolar to'ri" sifatida tavsiflanadi[8]. Geertz yondashuviga ko'ra, Navoiy tarbiyaviy g'oyalari o'zbek jamiyatining madaniy-ma'naviy kodini aks ettiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot bir necha metodologik yondashuv va usullarning uyg'unligiga asoslanadi. Har bir metod tadqiqotning turli qirrasini ochib berishga xizmat qiladi va birgalikda yaxlit ilmiy tasvir hosil qiladi.

Birinchi usul – tarixiy-qiyosiy metod. Bu metod orqali Navoiy asarlari yaratilgan XV asr Hirot madaniy-ijtimoiy muhiti bilan zamonaviy etnologik yondashuv qiyoslanadi. Shuningdek, Navoiy asarlarida ifodalangan tarbiya g'oyalari o'sha davrning boshqa turkiy-forsiy pedagogik manbalari bilan taqqoslanadi.

Ikkinchi usul – matnshunoslik tahlili. Navoiy asarlarining birlamchi manbalari – to'la asarlar to'plami, «Mahbub ul-qulub», «Muhokamat ul-lug'atayn», «Xamsa» dostonlari – asosiy manba sifatida qo'llaniladi.

Uchinchi usul – germenevtik yondashuv. Navoiy matnlarini faqat tarixiy kontekstda emas, balki zamonaviy o'quvchi va zamonaviy ilmiy paradigma nuqtai nazaridan ham talqin etish germenevtika usulining mohiyatini tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Komil inson konsepsiyasi va o'zbek etnik mentalitetida g'oyat yuqori o'rinda turadi. Navoiyning komil inson konsepsiyasi o'zbek xalqining etnik mentaliteti bilan juda chuqur uyg'unlashgan. O'zbek xalqi

azaldan shaxsni faqat o'z bilim va ko'nikmalari bilan emas, balki avvalo axloqi, odobi va jamiyatdagi munosabatlari orqali baholagan[9]. Navoiy «Hayrat ul-abror» dostonida komil inson sifatlarini batafsil sanab o'tadi: u ilmi bo'lishi, ilmni amalda qo'llashi, kambag'alga qo'l uzatishi, zulm va haqsizlikka qarshi turishi kerak.

Shuningdek, Navoiy komil insonning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida tavozeni – kamtarlikni – ko'rsatadi. O'zbek xalqida ham «Kamol topqan kishi kamtarroq bo'ladi» degan e'tiqod kuchli. Bu xususiyat barcha asarlarida: ham lirik she'riyatda, ham epik dostonlarda, ham didaktik nasrda – izchil targ'ib qilinadi.

Etnologik nuqtai nazardan qaralganda, komil inson konsepsiyasi o'zbek etnosining «ideal a'zo» obrazini ifodalaydi. Har bir etnik guruh o'z a'zolarida qaysi fazilatlarini ko'rishni xohlashini belgilab oladi va shu orqali etnik identitetning asosiy mezonlarini shakllantiradi. Navoiy aynan o'zbek xalqining ana shu mezonlarini badiiy va ilmiy jihatdan mukammal ifodalagan.

Axloqiy tarbiya tizimi: etnologik o'lchamda tahlil qilindi. «Mahbub ul-qulub» asarida Navoiy axloqiy tarbiyani ikkita asosiy ustun – odob va hilm – atrofida qurib chiqadi[3]. Odob – bu insonning o'zini tutishi, kattalarni hurmat qilishi, ilm oldida bosh egishi. Hilm esa – muloyimlik, sabr-toqat, nafsini tiya bilish fazilatidir.

Navoiy yozadi: «Adab kichik yoshlig'larni ulug'lar duosig'a sazovor etar»[3]. Bu jumlada oddiy tarbiyaviy ko'rsatmadan ko'ra chuqurroq etnologik ma'no bor. Kattalarning duosi – bu o'zbek mentalitetida real va ma'naviy kuch sifatida qabul qilinadi. Shunday qilib, Navoiy odobni metafizik rag'batlantirish tizimi bilan bog'laydi.

Hilm masalasida Navoiy yanada chuqurroq fikr yuritadi. U hilmni shaxsning kuch-qudrati belgisi sifatida ko'rsatadi. Bu qarash o'zbek xalq hikmatida ham aks etgan: «Sabr qilgan murodiga yetgan», «Toqatli daryo kechgan» kabi maqollar aynan shu ma'noni anglatadi.

Ustoz-shogird tizimining etnologik mohiyati Navoiy asarlarida yaxshi yoritib berilgan. Navoiy merosida ustoz-shogird munosabati eng muhim etnologik-pedagogik mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. «Mahbub ul-qulub»ning «Dabiriston ahli zikrida» qismida Navoiy maktabdor va shogird o'rtasidagi munosabatni juda nozik tarzda tasvirlaydi[3].

O'zbek mentalitetida ustoz-shogird munosabati hech qachon oddiy bilim berish-olish jarayoni bo'lmagan. Bu munosabat ma'naviy bog'liqlik va o'zaro mas'uliyat asosida qurilgan. "Ustoz otangdek ulug'" degan maqol bu munosabatning etnologik mohiyatini ko'rsatadi.

Etnologik jihatdan bu tizim G. N. Volkov ta'kidlagan «tarbiyaviy munosabatlar iyerarxiyasi» konsepsiyasi bilan uyg'unlashadi[12]. Har bir xalq o'z an'anaviy tarbiya tizimida o'rganish va o'rgatish munosabatlarining o'ziga xos shaklini ishlab chiqqan. O'zbek xalqida bu shakl aynan ustozga chuqur ixlos va uning so'zini so'zsiz qabul qilish asosida qurilgan.

Tilning etnologik va pedagogik roli Navoiy asarlarida batafsil keltirilgan. Xususan, «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida Navoiy til masalasiga alohida e'tibor qaratadi[4]. U o'zbek tilining imkoniyatlarini fors tilidan kam emasligini dalillar bilan isbotlaydi va bu orqali o'zbek xalqining o'z ona tilida ham yuksak adabiyot va ilm yaratishga qodir ekanligini ko'rsatadi.

Anderson nazariyasiga ko'ra, milliy identitet ko'p jihatdan umumiy til va adabiyot orqali shakllanadi[10]. Navoiy o'zbek tilida yozilgan keng qamrovli adabiy meros orqali o'zbek xalqining milliy o'zligini kuchaytirgan. Etnologik jihatdan bu til siyosatining tarbiyaviy jihati hisoblansa,

pedagogik jihatdan bu milliy g'urur va o'zlikni anglashning asosi hisoblanadi.

«Xamsa» dostonlarida etnologik motivlar haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. Navoiyning «Xamsa» dostonlari o'zbek xalqi uchun nafaqat badiiy, balki etnologik manba bo'lib xizmat qilgan[5]. Dostonlardagi qahramonlar – Farhod, Shirin, Layli, Majnun – o'zbek bolalari uchun axloqiy va etnik namunalar sifatida qaralgan.

“Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod obrazi etnologik jihatdan alohida qiziqarli. Farhod mehnatsevar, fidoyi, sevgida sadoqatli qahramon sifatida tasvirlangan. Farhodning toshlarni yorib suv chiqarishga qaratilgan mehnati o'zbek xalqining «qo'l tekkan yerda gul unadi» degan hayot falsafasini ramziy ifodalaydi.

Geertz nazariyasi bo'yicha madaniyat inson xatti-harakatlarini talqin qiluvchi tizim sifatida qaraladi[8] va Navoiy qahramonlari madaniy kodlarni aks ettirib, axloqiy va etnik tarbiya vazifasini bajaradi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy merosi o'zbek xalqining etnologik tizimini ifodalaydigan eng boy va mukammal manbadir. Navoiy asarlarida ifodalangan axloqiy tarbiya, komil inson konsepsiyasi, ustoz-shogird an'anasi va tilga munosabat – bularning barchasi o'zbek xalqining etnik mentaliteti, qadriyatlar va hayot falsafasi bilan chambarchas bog'liq.

Volkov, Smith, Geertz va Anderson[6] kabi zamonaviy nazariyotchilarning yondashuvlari Navoiy pedagogikasini yangi etnologik kontekstda tahlil qilish imkonini beradi. Navoiy asarlaridagi tarbiyaviy g'oyalar o'sha davr uchun ham, bugungi kun uchun ham o'z qiymatini yo'qotmagan.

Kelajak tadqiqotlar uchun yo'nalish sifatida Navoiy merosini zamonaviy maktab dasturlariga integratsiya qilish modellarini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Shuningdek, Navoiy asarlarini turli etnik guruhlar bilan qiyosiy tahlil qilish etnologiya fani uchun ham yangi imkoniyatlar ochadi.

ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1987–2004.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti, 1991.
3. Alisher Navoiy. Mahlub ul-qulub. – Toshkent: Fan, 1983.
4. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent: Fan, 1984.
5. Alisher Navoiy. Xamsa: Farhod va Shirin. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1989.
6. Anderson B. Imagined Communities. – London: Verso, 1983. – B. 35–50.
7. Bromber K., Gibril J. Ethnology and the Colonial Encounter. – London: Routledge, 2002.
8. Geertz C. The Interpretation of Cultures. – New York: Basic Books, 1973. – B. 5–22.
9. Qodirov A. O'zbek xalq pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.
10. Smith A. D. The Ethnic Origins of Nations. – Oxford: Blackwell, 1986. – B. 45–62.
11. Sulaymonov H. Navoiy va tarbiya. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
12. Volkov G. N. Etnopedagogika. – Moskva: Prosveshcheniye, 1999. – B. 15–32.
13. Yusupov E. Navoiyning axloqiy qarashlari. – Toshkent: Fan, 2001.